

---

University of World  
Economy and Diplomacy



## Modern Trends in Education: Foreign Languages and International Economics

International scientific and practical conference  
February 23, 2022 - Tashkent, Uzbekistan

PROCEEDINGS

Tashkent-2022

---

**UNIVERSITY OF WORLD ECONOMY AND DIPLOMACY**



**Collection of the International scientific and practical conference on  
“Modern Trends in Education: Foreign Languages and International  
Economics”**

**February 23, 2022**

---

**“Ta’limda zamonaviy trendlar: xorijiy tillar va xalqaro iqtisodiyot”  
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami**

**2022 yil 23 fevral**

---

**Сборник материалов Международной научно-практической  
конференции на тему  
“Современные тенденции в образовании: иностранные языки и  
международная экономика»**

**23 февраля 2022 года**

**Tashkent – 2022**

<i>Shakhakimova M.T.</i> ICT INFLUENCE ON ORGANIZATION OF SELF-STUDY IN TERTIARY EDUCATION	743
<i>Fazilova L.A.</i> RAQAMLI MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH MADANIYATI VA YOSHLAR ONGINI HURUJLARDAN HIMOYALASH OMILLARI.	748
<i>Sobirov M.A., Kurbanova I.Sh.</i> TALABALARGA QAYTA TIKLANUVCHAN ENERGIYA MANBALI ELEKTR TA'MINOTI TIZIMLARIDA REAKTIV QUVVATNI ISHLAB CHIQRISH VA BOSHQARISHNI O'RGATISH	752
<i>Султонова У.И.</i> ФОРМА ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ	762

technology has become the basis for the preparation of electronic educational publications for the organization of independent work of students.

## REFERENCES

1. Alsied, S.M. and Pathan, M.M. 2015. 'The use of computer technology in EFL classroom: Advantages and implications.' International Journal of English Language and Translation Studies. vol 1(1).
2. Bishop, J.L. and Verleger, M.A. 2013. 'The flipped classroom: A survey of the research.' Presented at the 120th ASEE Annual Conference and Exposition. Atlanta, Georgia.
3. Beilefeldt, T. 2012. 'Guidance for technology decisions from classroom observation.' Journal of Research on Technology in Education. vol 44(3).
4. Lin, M.-C., Wang, P.-Y. and Lin, I.-C., 2012. Pedagogy technology: A two-dimensional model for teachers' ICT integration, British Journal of Educational Technology, vol. 43(2)
5. Al-ruz, J. A. and Khasawneh, S., 2011. Jordanian preservice teachers' and technology integration: A human resource development approach, Educational Technology and Society, vol. 14.(1)
6. Castro Sánchez, J. J. and Alemán, E. C., 2011. Teachers' opinion survey on the use of ICT tools to support attendance-based teaching. Journal Computers and Education, vol. 56 (1)
7. Sang, G., Valcke, M., Braak, J., Tondeur, J. and Zhu, C., 2011. Predicting ICT integration into classroom teaching in Chinese primary schools: Exploring the complex interplay of teacher-related variables, Journal of Computer Assisted Learning, vol. 27 (3)

## RAQAMLI MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH MADANIYATI VA YOSHLAR ONGINI HURUJLARDAN HIMOYALASH OMILLARI.

**Fazilova L.A.**

*TDSI, "Biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyalari" kafedراسi tibbiyotda axborot texnologiyalari fani katta o'qituvchisi*

*fazilova1972@umail.uz,*


**Abstract.** *This article discusses the effective use of the Internet at a time when the flow of information is rapidly increasing in the context of today's globalization process.*

**Keywords:** *Internet, «Instagram», «Twitter», «Odnaklasniki.ru», «facebook», «Мой мир», multimedia.*

Bugun dunyoning har bir nuqtasida sodir bo'lgan voqea, yangilik xususida yetarli axborot olishimiz uchun atigi bir necha soniya kifoya. Monitor qarshisida sichqonchasimon moslamani boshqarib, istalgan mavzuda istalgan axborotni olish mumkin. Internet bir necha o'n yil ichida global tarmoqqa aylanib, nainki axborotlashgan jamiyatni yuzaga keltirdi, balki jahonda globallashuv jarayonining tezlashishida ham muhim omil bo'ldi va bu tezlashishning asosiy sabablaridan biri yer yuzidagi yuz bergan sharoit, ya'ni pandemiya sharoiti sabab bo'ldi.

Butun dunyo bo'ylab Internet boshqalar bilan muloqot qilish, har xil harakatlar oqimini tartibga solish va ma'lumot almashish uslubimizni o'zgartirishda davom etmoqda. Internetning o'sib borayotgan ta'siri kundalik hayotimizning tobora muhim qismiga aylanib bormoqda, bu esa shaxsiy iste'molchilarga ham, yirik iqtisodlarga ham o'z ta'sirini yaqqol ko'rsatmoqda. 2019-yilda butun dunyo bo'ylab internet foydalanuvchilari soni 3,97 milliard kishini tashkil etdi, ya'ni hozirda dunyo aholisining yarmidan ko'pi Butunjahon Internet tarmog'iga ulangan. Biroq, dunyoning ko'p qismlarida raqamli aholi sezilarli darajada o'sib borayotgan bo'lsa-da, Internetning mavjudligi va unga kirish mintaqalar bo'ylab sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Quyida 2021 yil oktabr holatiga ko'ra mobil internetning o'rtacha tezligi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar ro'yxati diagrammasi keltirilgan (tezlik Mbit/s da):



Internet – insoniyat tafakkuri mahsulidir. Internet axborot olish, almashish va uzatishning eng samarali, qulay vositasidir hisoblanadi. Uning multimedia (tasvir, ovoz, matn) xizmati va boshqa qator qulayliklari insoniyatni brogan sari virtual olamga ohangrabodek tortmoqda. Lekin masalaning ikkinchi, g'oyat e'tibortalab jihati ham bor. Ba'zi mamlakatlarda virtual olamga g'arq bo'lish oqibatida o'zining yoxud o'zgalarning joniga qasd qilish odatiy holga aylanayotgani ham sir emas. Qator davlatlarda real hayotni virtual hayotga almashtirgan, ruhiy nosog'lom bemorlarni davolashga hattoki ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etilayotganini ham hech kim inkor etolmaydi.


Bugungi axborot asrida hohlagan ma'lumotni internet tarmoqlaridan izlab topish imkoni mavjuddir, bu esa bizni axborot asrida yashamoqaligimizni bildiradi. Ho'sh, biz internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning qaysi biri haqiqat va qaysi biri esa yolg'on ma'lumot ekanligini ajrata olyapmizmi? Bunda bizga qo'yiladigan yagona talab ham aynan shu emasmi? Shu o'rinda ta'kidlab o'tish o'rinliki, bugungi kunda faktlarga qaraganda yer yuzida qancha odam

Internetdan foydalanadi deb o'ylaysiz? 2021-yil yanvar holatiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 4,66 milliard faol internet foydalanuvchilari bor – bu dunyo aholisining 59,5% tashkil qilmoqda. Ularning 92,6% (4,32 milliard) mobil qurilmalar orqali internetga kirgan.

Internetdan global foydalanish haqida qisqacha ma'lumot berib o'tmoqchiman: Endi bundan bu yog'iga dunyoni internetsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Butun dunyodagi milliardlab odamlarni birlashtirgan Internet zamonaviy axborot jamiyatining tayanchi vazifasini egallab bo'ldi. Dunyo bo'ylab internetning kirib borish darajasi 59,5% tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bunda Shimoliy Yevropa aholi orasida internetning 96%ga kirishi bilan birinchi o'rinda turibdi. Dunyo bo'ylab internetning kirib borish darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar BAA, Daniya va Shvetsiyadir. Shuningdek, spektorning qarama-qarshi tomonida Shimoliy Koreya joylashgan bo'lib, uning oddiy aholisi Internetga kirish imkoniga ega emas va dunyoda oxirgi o'rinda turgan hisoblanadi. 2020-yil holatiga ko'ra, Osiyo eng ko'p onlayn foydalanuvchilar soni bo'lgan mintqa bo'ldi – oxirgi hisobda 2,5 milliarddan ortiq. 728 millionga yaqin internet foydalanuvchisi bilan Yevropa ikkinchi o'rinni egalladi. Shu o'rinda “Qaysi davlatda internet foydalanuvchilari ko'p?” degan savol tug'iladi. Hozirgi kunda Xitoy, Hindiston va AQSh davlatlari aholisi internetdan foydalanuvchilar soni bo'yicha barcha mamlakatlardan oldinda turibdi. Xitoyda 854 milliondan ortiq internet foydalanuvchisi, Hindistonda esa 560 millionga yaqin onlayn foydalanuvchi bor. Ikkala mamlakatda ham aholining aksariyati oflayn rejimda ishlab kelmoqda.

Ma'lum qilinishicha, “Optik tolali aloqa liniyalarini qurish” loyihasi doirasida rejalashtirilgan obektlarga 19 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari qurilib, umumiy uzunligi 55,6 ming kilometrga yetkazildi, bu natijalar ham O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar sonining kundan kunga ortib borayotganini bildiradi. Qayd etilishicha, 2021 yil boshida O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22,1 milliondan oshgan, shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 19 million kishini tashkil etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinish darajasi 97% ni, mobil internet qamrovi esa 87% ni tashkil etadi. 2020 yilning dekabr oyi boshida maktablarning 70% va sog'liqni saqlash muassasalarining 78% internetga ulanganligi qayd etilgan.

Ayni vaqtda, internetning qaysi saytlariga foydalanuvchilar ko'plab murojaat qilayotganini aniqlash va bu borada ish olib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirda inson hayotiga jiddiy salbiy ta'sir qiluvchi saytlar, jumladan 10 mingdan ortiq o'z-o'zini o'ldirishga undovchi saytlar, 5 mingdan ortiq erotik saytlarni faoliyat olib borayotgani ushbu masalani naqadar dolzarb masalaga aylanayotganining yaqqol isbotidir. Quyida keltirilgan diagrammada 2021-yil iyun holatiga ko'ra, tashrif vaqti bo'yicha dunyodagi eng mashhur veb-saytlar tasvirlangan:




Bu holat ushbu sohaga e'tibor berishni talab etmoqda. Internetda ko'proq yoshlar foydalanishini hisobga oladigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan raqamlarning o'zi ko'rsatib turibdiki, yoshlarning internet tizimiga qulligi va tobeligi kuchayib bormoqda.

Bugungi jadallashib borayotgan globallashuv jarayonida ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlarni turli xil yod g'oyalari va axborot hurujlari ta'siridan asrash eng muhim vazifalardan biriga aylanib bomoqda.

Bunda e'tibor berishimiz kerak bo'lgan bir jihat mavjudki, hozirda axborot hurujlari avj olayotgan bir zamonda yashayotgan ekanmiz yoshlarni ongiga ta'sir etadigan turli xil yod g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirib borishimiz lozim. Bu borada "Yadroviy poligonlardan ko'ra, mafkuraviy poligonlar xavflidir", degan gap yana o'z isbotini topmoqda.

Quyidagi diagrammada 2014 yildan 2021 yilgacha bo'lgan butun dunyo bo'ylab raqamli faol xaridorlar soni aks ettirilgan:



Yoshlar ongini egallash maqsadida olib borilayotgan hujumlarning oldini olish uchun hozirgi kunda keng jamoatchilik birdek mas'ulyatni his etib harakat qilishi lozim. Darhaqiqat, hozirda internet tarmog'idan har kim o'z maqsadiga ko'ra, hoh yaxshi bo'lsin, hoh yomon, istalgan ma'lumotni topish imkoni mavjud. Axborot asrida yashamoqda ekanmiz, bunday vaziyatda esa yoshlarimizni turli yod g'oyalari ta'siridan asrash uchun ularni e'tiqodini baquvvat va eng muhimi o'zimizning milliy g'oyamiz asosida tarbiyalashimiz lozim. Zero, o'z fikriga ega bo'lmagan yoshlar aynan, tarqatilayotgan ma'lumotlarga fikr bildirsa olmaydi va to'g'ri mushoha eta

olmaydi. Natijada shunday yoshlar ba'zi nojo'ya guruhlar yoki harakatlarning ishtirokchisiga aylanib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, to'g'riga to'g'ri, o'g'riga o'g'ri bo'lgan bu dunyoning asl mohiyati inson hayotda farzandlariga, kelajak avlodlariga chiroyli xulqi va odobi bilan o'rnak bo'lib yashab o'tishi darkor. Shu o'rinda shoirning quyidagi misralarini keltirmoqchiman:

G'urbat izlaganga g'urbat bu dunyo.

Izzat izlaganga izzat bu dunyo,

Kim neni izlasa, topar begumon,

Hikmat izlaganga hikmat bu dunyo.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://kun.uz/>
2. <https://www.statista.com/>
3. <https://www.gazeta.uz/>
4. <https://hostingpill.com/>
5. <http://notiq.uz/>

### **TALABALARGA QAYTA TIKLANUVCHAN ENERGIYA MANBALI ELEKTR TA'MINOTI TIZIMLARIDA REAKTIV QUVVATNI ISHLAB CHIQRISH VA BOSHQARISHNI O'RGATISH**

**Sobirov M.A.**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU  
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i  
m.sobirov@tuit.uz*

**Kurbanova I.Sh.**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti  
Tillar kafedrasida assistenti  
ilmira.kurbanova.83@mail.ru*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada qayta tiklanuvchan energiya manbali elektr energiya ta'minoti tizimi reaktiv quvvati birlamchi toklarini ikkilamchi kuchlanishga o'zgartirish datchiklarining yig'ilgan va tarqalgan parametrlari yaratilgan. Shu bilan birga elektr energiya ta'minot tizimlarida reaktiv quvvatning samaradorligini baholashning Cloud Computing modeli va tadqiqot algoritmi ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *elektr energiya ta'minoti, qayta tiklanuvchan energiya manbasi, reaktiv quvvat, energiya samaradorligi, Cloud Computing modeli.*